

**INGLIZ TILIDAGI KO'RSATISH OLMOSHLARINI O'ZBEK
MAKTABLARIDA O'QITISH METODIKASI**

Sotvoldiyeva Mohlaroyim

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

Tursunboyeva Muhayyo

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

Abdusattorova Laylo

Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif hozirgi ingliz va o'zbek tillarida olmoshlarni o'zbek maktablarida o'qitish jarayonlarida qanday metodik usullardan foydalanish komponentlari haqida o'z mulohazalarini bayon qilishga harakat qilgan. Bunda muallifning diqqat markazida ingliz va o'zbek tillarida olmoshlarni o'zbek maktablarida o'qitish metodikalarini asosiy tadqiqot materiali sifatida o'rganilgan. Maqolani tayyorlash jarayonida muallif ingliz va o'zbek tilshunoslarining qarashlariga tanqidiy yondoshgan va o'z mulohazalarini dadil bayon qilgan. Maqola ingliz va o'zbek tili leksikologiyasini o'rganuvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Zamonaviy yangi o'qitish texnologiyalarida esa o'qitish jarayoni o'quvchi shaxsiga yo'naltirilganligi, uning xotirasi, qobiliyati va ichki imkoniyatlari xisobga olgan differensial yondashuv o'qituvchi-o'quvchi munosabati o'zaro xurmato'quvchida o'rganilayotgan fanga, mavzuga nimbatan yuqori motivatsiya (qiziqish, istak-xoxish) hosil qilishga intilish kuzatiladi.

Bilim olishda esa mustaqillik, muammoli topshiriqlarni yechishdagi izlanuvchanlik va ijodkorlikni ko'rish mumkin.

Shuningdek o'rganilgan zquv materialini amaliyotda qo'llashga nisbatan qiziqishning kuchliligi, rollididaktik o'yinlardan, muammoli vaziyatlardan keng foydalanish ham yangi o'qitish texnologiyalariga xosdir.

Chet tili o'qitishdagi zamonaviy texnologiyalar kursi boshqa fanlar bilan bog'langan holda hamkorlikda ish olib boradi. Bu fanlarga tilshunoslik, psixologiya, psixolingvistika, pedagogika, chet tili o'qitishining zamonaviy metodikasi, pedagogik maxorat kabi fanlarni kiritish mumkin. Ushbu fanlarda erishilgan yutuq va tajribani integrallashtirish orqali chet-tilini o'qitishni texnologik asosida tashkil qilishga harakat qilish talab etiladi.

Mavzuga qaytadigan bo'lsak, maktablarda grammatika o'qitishning maqsadi o'quvchilarga so'z tuzish va gap qurish haqidagi qonun-qoidalarni o'rganishdan iborat.

O'quvchi grammatik qoidalar asosida adabiy til normalarini egallaydi. Bu fikrni to'g'ri, aniq, ravon, izchil ifodalash imkonini beradi.

Grammatika o'qitishning muvoffaqiyati ko'p faktorlarga bog'liq, o'quvchining lug'at boyligi keng bo'lsa, unga grammatik bilim berish ham oson bo'ladi.

O'quvchi grammatik umumlashmalarga va tegishli amaliy malakalarga ega bo'lishi mumkin. Avvalo, so'zning ma'nosini tushungan bo'lishi, ikkinchidan unda so'z boyligi yetarli bo'lishi shart.

So'z ma'nolarini puxta bilmagan o'quvchi boshqa predmetlarni tushunishda ham qiynaladi.

Lug'at o'quvchining umummadaniyatida muhim o'rin tutadi: fikr ravshanligi ham, ifoda rovonligi, nutqiy joziba so'z zapasiga bog'liq. So'zga boy o'quvchining orfografik va punktasion malakasi ham mustahkam bo'ladi. Shunga ko'ra, grammatika o'qitish jarayonida ham lug'at ishiga alohida o'rin beriladi: har kuni o'quvchi ma'lum miqdordagi so'zni o'rganishi, bu so'zni aktiv lug'atga aylantirish uchun uni qatnashtirib, gap tuzish har bir darsda eshitgan yangi so'zlarning yozib borishi lozim.

Mashq bajarish vaqtida o'quvchilar o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni bilib va tushunib olishlari shart. Bundan tashqari grammatik qonun –qoidalarni ham mustahkam o'zlashtirishlari kerak.

Har qanday o'rganilayotgan ish materiali o'rganuvchilarni bilim va malakalarini oshirish, og'zaki nutqni oshirish uchun xizmat qilmog'i kerak.

O'zbekiston rivojlangan mamlakatlar bilan aloqa qilayotgan bir paytda, jaxon standartlariga to'la javob bera oladigan va xar tomonlama yetuk bilim va malakalarga ega bo'lgan iqtidorli mutaxassislariga muxtoj.

Diyorimizda olib borilayotgan islohatlar har bir sohaga tegishli ekanligini unutmashligimiz kerak. Jumladan tegishli sohasida ham tub o'zgarishlar ro'y berdi.

Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan isloh qilish uchun yaratilgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning sifat bosqichida ko'zda tutilgan vazifalarni hal etish jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda.

Bu boradagi eng asosiy vazifalardan biri ta'lim tarbiya va o'quv jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash va mashg'ulotlarni yuqori saviyada tashkil etish orqali ta'lim soxasida, shu jumladan o'quvchining fanlar bo'yicha bilim asoslarini o'zlashtirishda ijobiy yutuqlarga erishishdir.

Xozirgi kunda esa axborot texnologiyalarining hayotimizning ajralmas qismiga aylanganligi barchamiz uchun sir emas va bu insoniyatning buyuk yutug'idir.

Axborot texnologiyalari hozirgi kunda ayniqsa ta'lim tizimining eng kuchli vositasi deb xisoblanadi. Ular yordamida ta'lim oluvchilar yangi axborotlar dunyosiga kirib oladilar, turli masofalardan turib, bir-biirlari bilan muloqot qiladilar, ma'lumotlar almashadilar. O'qish va o'qitishda ayniqsa internetning ahamiyati beqiyosdir.

Internet orqali taraqqiy etgan mamlakatlarning yetakchi oliygoxlarida yangi o'quv materialini, xususan tarqatma materiallarni, nazorat testlarni olish va ta'lim jarayonida bimalol qo'llash mumkin.

Internet orfali ta'lim oluvchilar jaxonning yetakchi mutaxassislarining ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida ishtirok etishlari masofadan turib ular bilan bevosita muloqatda bo'lishlari mumkin va eng muhimi –o'quvchi va turli fanlarning o'qishda tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Axborot texnologiyalarining yana bir imkoniyatlaridan biri-qilib (darslik) larning elektron nusxalaridan foydalanish: elektron qo'llanmalar, elektron darsliklar va x.k. foydalanish xisoblanadi

Elektron darsliklar kerakli fan sohasi bo'yicha mumkin emas bilim manbai bo'lib, turli grafika, tovush va animatsiya imkoniyatlari yordamida mavzularni elektron muallif sifatida to'liq ifodalab beradi. Bundan tashqari o'zlashtirilgan bilimni nazorat qilish imkonini beradi.

Xa, xozirgi kunda haqiqatdan ham ta'lim sifati o'zgartirildi.

Ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablardan biri bu darlarni noan'anviy tarzda yangi metodik texnologiyalar asosida axborot texnologiyalari yordamida tashkil etishdan iborat.

Shu o'rinda o'quvchilarga yangi grammatik mavzuni tushuntirishning metodik jixatlari haqida fikr almashmoqchimiz.

Yangi grammatik materiallarning ma'nosini o'quvchiga bildirish, tushuntirish jarayonida o'quvga talabalarning o'zlari mavzu ma'nosini, moxiyatini faxmlab topishlari ona tiliga tarjima qilish bilan birgalikda ularni ekvivalentlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy texnologiyalarning asosiy maqsadlaridan biri maqzu yoki amaliy mashg'ulotlarda o'rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, mavzuni bilib, tushunib olish samaradorligini oshiradi.

Xozirgi vaqtda darsni tashkil qilishda texnologik yondoshuv asosida turli interfaol metodlardan keng foydalanilmoqda. Ularga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

“Brain storming”-aqliy xujum. Bu jamoa xamkorlikda muammoli yechish, nostandart tafakkurni rivoshlantirish demakdir.

Metod adabiyotlarda “breynstoling” ning turli variantlarini kuzatish mumkin.

1. “Fikriy xujum”. Bu usul A.F.Osborn tomonidan tavsiya qilingan. Ular har bir ishtirokchi tomonidan o'rtaga tashlangan fikrga tanqidni mutlaqo yo'qligi va xar qanday luqma va xazil fikrlarning rag'barlantirilishi kuzatiladi Bu esa baxsda erkin ishtirokchi bo'lishni ta'minlaydi. Tanqiddan cho'chish, ikkilanish bo'lmaydi. Qatnashuvchilar soni 15 nafardan oshmasligi kerak

2. “Yalpi fikrlash xujumi” Mazkur usul Donald Films tomonidan ishlab chiqilgan va o'n yoki undan ortiq (20, 40, 60 nafar) ta'lim oluvchilardan iborat guruxlarda qo'llaniladi. Unda talabalar 5-6 tadan bo'lib kichik guruxlarga biriktiriladi va ularga topshiriq beriladi. Ular 15 daqiqa ichida yechilishi kerak. So'ng gurux

a'zolaridan bir tomonidan axborot beriladi. U boshqa gurux a'zolari tomonidan muhokama qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduvaliyev M.A. Ingliz va o'zbek tillari gaplarning chog'ishtirma sintaksisi. Andijon , 1996 y
2. Kasatkin L.L.Russkiy yazyk. M. «Prosvetyeniye» 1989
3. Kaushanskaya G. Dr. Practical Grammar of the English language “Prosvesgeniye”, 1971
4. Uzakov H . va boshqalar O'zbek tili amaliyoti. T. “O'qituvchi 1993
5. Xoshimov G'.M. Tipologiya slojnogo predlojeniya v raznosistemnyx yazykax ADD. T. 2002
6. Hashimov G.M. Lectures on the theory of modern English grammar. A.2010
7. Muxammadjonovich A. M. JINOYAT VA JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – T. 11. – №. 1. – S. 892-894.